



**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI MAKTABLARIGA
QABUL IMTIHONI MATERİALLARI SPETSİFİKATSIYASI
Is'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi
ONA TİLİ VA ADABIYOT
7-SINF
2025/2026-o'quv yili**

I. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul imtihonlarini o'tkazishdan maqsad

O'quvchilarning ona tili va adabiyot fanidan bilim darajasini aniqlash, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini tekshirish hamda munosib o'quvchilarni tanlash.

II. Qabul imtihoni variantining tuzilishi

Imtihon savollarining har bir varianti kognitiv darajasi bilish, qo'llash, mulohaza qilish bo'lgan 20 ta bitta muqobil javobga ega bo'lgan test topshiriqlaridan iborat.

Topshiriqlar umumiylar o'rta ta'limga muktabalarining 5-6-sinflarining ona tili va adabiyot fani o'quv dasturlari asosida tuziladi.

Har bir imtihon variantining savol va topshiriqlari ona tili va adabiyot fani bo'yicha quyidagi bo'limlarni qamrab oladi:

1. Fonetika va imlo
2. Leksikologiya
3. So'z tarkibi. Morfologiya
4. Tinish belgilari.
5. Matnni tushunish
6. Hikmat durdonalari
7. Ertaklar olamida
8. Bolalikning beg'ubor olami
9. Har bir kun – saboq
10. Fantastika va sarguzashtlar olami
11. Rangin tuyg'ular
12. Badiiy matn tahlili

Bo'limlar bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti (1-jadval)

Shuningdek, imtihon savollari uchta darajaga mos tuzilgan (2-jadval)

Bilish;

Qo'llash;

Mulohaza.

Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar (3-jadval)

1-jadval

Bo'limlar bo'yicha bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

T/r	O'quv va aqliy faoliyat turi	Topshiriqlar soni	Ulushi
1	Bilish	3	20%
2	Qo'llash	5	50%
3	Mulohaza	7	30%
JAMI:		15	100%

2-jadval

Baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti

Test turi	Ona tili		Adabiyot			foizda
	5-sinf	6-sinf	5-sinf	6-sinf	Jami	
Bilish	1		1	1	3	20
Qo'llash	1	2	2	2	7	47
Mulohaza	1	1	1	2	5	33
Jami	3	3	4	5	15	100%

Quyidagi o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari baholanadi:

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlamasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalar, formula, tushuncha va atamalarning mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan.
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalar va formulalarni qo'llash, berilgantopshiriqlarga mosusullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtida qo'llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.
Tahlil	Intellektual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

3-jadval
Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

5-, 6-sinf ona tili va adabiyot darsligi asosida

Nº	Bo'lim	Bo'lim mavzusi	Bo'lim mavzusi bo'yicha egallangan ko'nikma
1	Fonetika va imlo	1. Nutq tovushlari. 2. Imlo.	1. Nutq tovushlari va harflarni farqlaydi. Unli va undosh tovushlarni tasniflaydi. 2. To'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlay oladi.
2	Leksikologiya	1. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari. 2. Iboralar.	1. Omonim, sinonim, paronim, antonim so'zlarni farqlaydi. 2. Iboralarning mazmunini izohlaydi.
3	So'z tarkibi. Morfologiya	1. Asos va qo'shimchalar. 2. Mustaqil so'z turkumlari.	1. So'zlarni ma'noli qismlarga ajratadi. Sodda yasama so'zlarni aniqlay oladi. 2. Mustaqil so'z turkumlarining o'zaro fargini aniqlay oladi.
5	Tinish belgilari	1. Nuqta, vergul, so'roq, undov va qo'shtirnoqning qo'llanishi.	1. Matndan tushirib qoldirilgan tinish belgilarinining o'rnini aniqlaydi.
6	Matnni tushunish	1. Matn sarlavhasi. Matndagi asosiy fikr.	1. Matn mazmuniga mos sarlavha tanlab, matnning asosiy g'oyasini aniqlay oladi.
7	Hikmat durdonalari	1. Imam Buxoriy, hadislari. Ezop hayoti va ijodi.	1. Imam Buxoriy hayoti, hadislari va hadislar mazmuniga oid fikrlarni tahlil qila oladi. Ezop hayoti va ijodiga xos ma'lumotlarni o'xhash ma'lumotlardan farqlay oladi.
8	Ertaklar olamida	1. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi. "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostoni. "Botir tikuvchi" ertagi.	1. Ertak mazmuni yuzasidan xulosa chiqaradi.
9	Bolalikning beg'ubor olami	1. Mirkarim Osim hayoti. Mirtemir hayoti va ijodi.	1. Mirkarim Osim hayoti va ijodiga xos ma'lumotlarni o'xhash ma'lumotlardan farqlay oladi. Mirtemir she'rlarini tahlil qila oladi.
10	Har bir kun – saboq	1. Odil Yoqubov hayoti va ijodi. O'tkir Hoshimov hayoti va ijodi.	1. Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni tahlil qila oladi.
11	Fantastika va sarguzashtlar olami	1. Hojiakbar Shayxov "Birinchi sinov". Rey Bredberi "Bir kunlik yoz".	1. Asar mazmuni asosida fikr yuritadi.

12	Rangin tuyg'ular	1. Abdulla Oripov hayoti va ijodi. Xurshid Davron ijodi.	1. Abdulla Oripov, Xurshid Davron hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni tahlil qiladi.
13	Badiiy matn tahlili	1. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi.	1. Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan keltirilgan badiiy parchalar mazmunini tahlil qila oladi.

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

Spetsifikatsiyada ko'rsatilgan mavzular quyidagi adabiyotlardan olingan:

1. 5-sinf. Ona tili darslik. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova. Toshkent-2020.
2. 5-sinf. Adabiyot darslik. Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Toshkent-2020.
3. 6-sinf. Ona tili darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlona, Sa'dullo Qur'onov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Toshkent-2022.
4. 6-sinf. Adabiyot darslik. Zulkumor Mirzayeva, Komil Jalilov. Toshkent- 2022.